

SHAXS SHAKILLANISHI VA IDENTITETLIKNING IJOBIY RIVOJLANISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING AHAMIYATI.

Andijon davlat pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna.

Andijon davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 1-bosqich 102-guruh talabasi

Salohiddinova Mushtariybegim Jo‘raxon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs shakllanishi va identitetlik jarayonining zamonaviy jamiyatda qanday kechishi, bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining tutgan o‘rnini yoritilgan. OAVning yoshlar dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqolada OAVning axborot berish, ijobiy rol modellarini ko‘rsatish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash hamda raqamli media vositalarining identitetlik rivojiga ta’siri misollar orqali ochib berilgan. Xulosa qismida esa ommaviy axborot vositalarining sog‘lom va ijobiy kontent yaratishdagi mas’uliyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: shaxs shakllanishi, identitetlik, ommaviy axborot vositalari, yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media, milliy qadriyatlar, axborot madaniyati, ijtimoiy ong.

“The Importance of Mass Media in the Positive Development of Personality Formation and Identity.”

Annotation: This article discusses the process of personality formation and identity development in modern society, highlighting the crucial role of mass media. The influence of media on shaping youth worldview, values, and social engagement is analyzed. The paper explores how mass media contributes to positive identity development by providing

information, promoting role models, and strengthening national values. It also emphasizes the impact of digital media and social networks on identity formation. The conclusion underlines the responsibility of media in producing positive and educational content.

Keywords: personality formation, identity, mass media, youth, social networks, digital media, national values, media culture, social consciousness.

"Значение средств массовой информации в позитивном развитии формирования личности и идентичности."

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования личности и развития идентичности в условиях современного общества, а также важная роль средств массовой информации в этом процессе. Анализируется влияние СМИ на формирование мировоззрения, ценностей и социальной активности молодежи. Отмечаются положительные аспекты СМИ, такие как предоставление информации, популяризация положительных ролевых моделей и укрепление национальных ценностей. Особое внимание уделено влиянию цифровых медиа и социальных сетей на развитие идентичности. В заключении подчеркивается ответственность СМИ за создание качественного и воспитательного контента.

Ключевые слова: формирование личности, идентичность, средства массовой информации, молодежь, социальные сети, цифровые медиа, национальные ценности, медиакультура, общественное сознание.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalari inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birga, shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, o‘zini anglash darajasi ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodda identitetlik ya’ni shaxsning kimligini anglash va o‘zini jamiyatdagi o‘rnini belgilash jarayoni ko‘p jihatdan ommaviy axborot vositalari ta’sirida shakllanadi. Ushbu maqolada OAVning shaxs shakllanishi va identitetlikning ijobiy rivojlanishidagi roli tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Identitetlik bu shaxsning o‘ziga xosligini, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatini anglashidir. U ijtimoiy, madaniy, milliy, diniy va shaxsiy omillar ta’sirida shakllanadi. Identitetlikning barqaror va sog‘lom shakllanishi, ayniqsa, o‘sish davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni ommaviy axborot vositalari bevosita yoki bilvosita tarzda shakllantiradi.

O‘zbekistonda 2021-2022-yillarda ommaviy axborot vositalari va Telegram-kanallari behayolik, zo‘ravonlik va diniy adovat qo‘zg‘atuvchi 18 mingdan ortiq axborot tarqatgani aniqlangan. Bu haqda Senatning 26- yalpi majlisida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xo‘jayev ma’lum qildi. Asadjon Xo‘jayevning aytishicha, agentlik yoshlar tarbiyasini buzadigan materiallar tarqatgani uchun OAV va Telegram-kanallarini ogohlantirib kelmoqda, ammo ularga ma’muriy jazo qo‘llanmayotgani uchun bunday qonunbuzarlik holatlari davom etmoqda. Ommaviy axborot vositalari va Telegram-kanallarda ko‘plab zo‘ravonlik, shavqatsizlik, ma’naviy buzuqlik, pornografiyani targ‘ib qiluvchi materiallar tarqalyapti. Biz ularning egalarini aniqlamoqdamiz va tegishli ogohlantirish beryapmiz. Lekin keyingi ko‘riladigan choramiz jiddiy emas. Ya’ni o‘sha materialni o‘chirish, cheklash yoki bunday holat qaytarilmasligi bo‘yicha hech qanaqa sanksiyalar yo‘q. Ma’muriy javobgarlik kodeksida ham bunday materiallar tarqatgani uchun ma’muriy javobgarlik mavjud emas. Biz mas’ullarga murojaat qilamiz, ko‘rsatmalar kiritamiz. Lekin bundaylarning orqasida iqtisodiy sanksiyalar bo‘lmasa, harakatlarimiz samarali natija bermayapti. Huquqbuzarliklar davom etmoqda. Shuning uchun, avvalo, ushbu masalada ma’muriy javobgarlik belgilansa, yaxshi bo‘lardi. Bevosita veb-saytlarda yoshlarimizga yot bo‘lgan, ma’naviy-ma’rifiy va diniy adovatni qo‘zg‘atuvchi bir qancha qonunbuzarliklar aniqlandi. Masalan, 2021-2022-yillarda 18 mingdan ortiq shunday huquqbuzarlik holatlari aniqlangan. Shuningdek, pornografiya, zo‘ravonlik, behayolik, narkoxizmatlarni targ‘ib qiluvchi 3 ming 134 ta xorijiy veb-saytlar borligi ma’lum. Maxsus idoralar bilan birgalikda ularni O‘zbekiston hududiga kirish va foydalanish huquqini chekladik. O‘zimizdagи veb-saytlarda ham bunaqa qonunbuzarlik holatlari bo‘lib turibdi. Bu endi ko‘pincha tushunmaslikdan va talablarning farqiga bormaslikdan yuzaga kelmoqda. Masalan, “uz” domenidagi 9 ming 500 ta veb-saytda

behayolik, ma’naviy buzuqlik, zo‘ravonlik, shavqatsizlik, qimor, tavakkalchilik, alkogol va tamaki mahsulotlarini reklama qilish yoki ularni targ‘ib qiluvchi ma’lumot va axborotlar aniqlangan. Ular bo‘yicha ham “O‘zkomnazorat” va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda tegishli choralar ko‘rilmoxda.¹ Ommaviy axborot vositalarining ijobiyligi ta’siri. OAV quyidagi yo‘nalishlarda shaxs va identitetlikning ijobiyligi rivojlanishiga hissa qo‘shadi:

Ma’lumot berish: OAV insonlarni turli madaniyatlar, qadriyatlar, tarixiy voqealar bilan tanishtirib, dunyoqarashni kengaytiradi.

Rol modellarini taqdim etish: Kino, hujjatli filmlar, intervyular orqali ijobiyligi namunalar (yetuk shaxslar, olimlar, sportchilar) ko‘rsatilib, yosh avlod uchun ideal shakllanadi.

Muqobil fikrlarni shakllantirish: Mustaqil axborot manbalari orqali insonlar tanqidiy fikrlashga, ijtimoiy ongning o‘sishiga erishadilar.

Milliy identitetlikni mustahkamlash: Mahalliy OAV orqali milliy urf-odatlar, til, tarix, madaniyat targ‘ib qilinadi, bu esa shaxsda vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘ularini oshiradi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar Instagram, TikTok, Telegram, YouTube va boshqalar shaxsiy identitetlikni shakllantirishda kuchli ta’sir kuchiga ega. Foydalanuvchi nafaqat tomoshabin, balki axborot yaratuvchisiga ham aylanadi. Bu esa shaxsning o‘zini ifoda etish, o‘z qiziqishlarini namoyon qilish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkonini yaratadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda sog‘lom hayot tarzi, ta’lim, ijtimoiy tenglik kabi ijobiyligi g‘oyalar targ‘ib qilinmoqda.

Xulosa.

Shaxs shakllanishi va identitetlik rivojida ommaviy axborot vositalarining o‘rnini beqiyosdir. Zamonaviy davrda insonlar axborotni asosan ijtimoiy tarmoqlar, televizion

¹<https://daryo.uz/2022/05/30/yoshlar-ongiga-salbiy-tasir-qiluvchi-axborot-tarqatgan-oav-va-telegram-kanallarini-mamuriy-javobgarlikka-tortish-taklifi-bildirildi>

dasturlar, bloglar, internet nashrlari kabi OAV manbalari orqali oladi. Bu vositalar nafaqat ma'lumot yetkazish, balki inson tafakkurini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan yondashuvini belgilash, qadriyatlar tizimini barpo etish va nihoyat, shaxsiy identitetlikni aniqlash jarayonida kuchli ta'sirga ega. OAV orqali tarqatilayotgan kontent shaxs dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va o'zini jamiyatdagi o'rmini qanday tushunishiga bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi eng ta'sirchan qatlam hisoblanadi. Ular hayotga bo'lgan qarashlarini, o'zini anglash va baholash qobiliyatini, jamiyatdagi rolini aksariyat hollarda OAV orqali olgan bilim va tasavvurlarga asoslab shakllantiradi. Shunday ekan, bu vositalar nafaqat axborot tarqatuvchi, balki tarbiyaviy hamda psixologik shakllantiruvchi omil sifatida qaralishi lozim. Bugungi kunda OAV kontentining sifati, mazmuni va ijtimoiy mas'uliyati masalasi dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlod ongini sog'lom asosda shakllantirish, ularning identitetlik tuyg'usini mustahkamlash uchun ommaviy axborot vositalarining mazmuni ijobiy, sog'lom g'oyaviy yo'nalishda, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi zarur. Aks holda, noto'g'ri, buzuq yoki radikal mazmundagi axborotlar salbiy psixologik va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shaxs identitetligi shakllanishida ommaviy axborot vositalari muhim psixologik vosita sifatida e'tirof etilishi lozim. Ularning ijtimoiy mas'uliyat bilan faoliyat yuritishi, ayniqsa yoshlar orasida sog'lom va ijobiy identitetlikni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, har bir OAV subyekti o'z kontentining ta'sir doirasini chuqr anglab, jamiyat oldidagi mas'uliyatini unutmasligi zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. <https://daryo.uz/2022/05/30/yoshlar-ongiga-salbiy-tasir-qiluvchi-axborot-tarqatgan-oav-va-telegram-kanallarini-mamuriy-javobgarlikka-tortish-taklifi-bildirildi>
2. <https://aoka.uz/>
3. <https://uza.uz/uz>
4. <https://edu.uz/uz#gsc.tab=0>